

Xafiza Abdullayeva

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası dotsenti
E-mail: hafiza05550@mail.ru
ORCID: 0009 0005 8035 0709*

**YANGI SHAHAR VA MASSIVLAR: ZAMONAVIY IJTIMOYIY-
MADANIY YARATISHDAGI INNOVATSION IZLANISHLAR
(YANGI O'ZBEKISTON MASSIVLARI MISOLIDA)**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda 2021-yildan boshlab amalga oshirilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivlari qurilishi dasturi madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan, ya'ni yangi turar-joy hududlarining ijtimoiy-madaniy makon sifatida shakllanish jarayoni sifatida tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi yangi massivlarni nafaqat fizik, balki ijtimoiy-madaniy "yaratish" jarayoni sifatida konseptuallashtirish va bunda innovatsion yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tizimli-tarkibiy tahlil, case-study va normativ-huquqiy hujjatlar kontent-tahlili metodlaridan foydalanilgan. Natijada "Yangi O'zbekiston" massivlari misolida yangi shaharsozlik amaliyotining ijtimoiy infratuzilma, mahalla institutining transformatsiyasi, madaniy makonlarning shakllanishi kabi jihatlari ochib berilgan hamda G'arb va mahalliy shahar nazariyalari asosida nazariy talqin taklif qilingan.*

***Kalit so'zlar:** yangi shahar, massiv, ijtimoiy-madaniy makon, urbanizatsiya, madaniy identifikatsiya, mahalla instituti, "Yangi O'zbekiston" massivlari, innovatsion shaharsozlik, jamoat maskani, shahar madaniyati.*

**НОВЫЕ ГОРОДА И МАССИВЫ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОИСКИ
В ФОРМИРОВАНИИ СОВРЕМЕННОГО СОЦИОКУЛЬТУРНОГО
ПРОСТРАНСТВА**

(НА ПРИМЕРЕ МАССИВОВ «ЯНГИ УЗБЕКИСТОН»)

***Аннотация.** В данной статье программа строительства массивов «Янги Узбекистон», реализуемая в Узбекистане с 2021 года, анализируется с точки зрения культурологии, то есть как процесс формирования новых*

жилых территорий в качестве социокультурного пространства. Цель исследования заключается в концептуализации новых массивов не только как физического, но и как социально-культурного процесса «созидания», а также в выявлении применяемых при этом инновационных подходов. В исследовании использованы сравнительно-исторический метод, системно-структурный анализ, метод case-study и контент-анализ нормативно-правовых документов. В результате на примере массивов «Янги Узбекистон» раскрыты такие аспекты современной градостроительной практики, как развитие социальной инфраструктуры, трансформация института махалли и формирование культурных пространств, а также предложена теоретическая интерпретация, основанная на западных и отечественных теориях города.

Ключевые слова: новый город, массив, социокультурное пространство, урбанизация, культурная идентичность, институт махалли, массивы «Янги Узбекистон», инновационное градостроительство, общественное пространство, городская культура.

**NEW CITIES AND RESIDENTIAL COMPLEXES: INNOVATIVE
APPROACHES TO THE CREATION OF MODERN
SOCIOCULTURAL SPACES
(A CASE STUDY OF THE “NEW UZBEKISTAN” RESIDENTIAL
COMPLEXES)**

Abstract. This article examines Uzbekistan's “New Uzbekistan residential-massif construction programme, launched in 2021, through the lens of cultural studies, treating the new settlements as an evolving socio-cultural space rather than merely a physical or economic artifact. The purpose of the article is to conceptualise new residential massifs as sites of socio-cultural “production” and to identify the innovative approaches embedded in this process. The study draws on comparative-historical analysis, systemic-structural analysis, case study, and content analysis of normative-legal documents. The findings reveal how the “New Uzbekistan” massifs

reshape social infrastructure, transform the traditional mahalla institution, and generate new cultural spaces, which are then interpreted through Western and local urban theory.

Keywords: *new city, residential massif, socio-cultural space, urbanization, cultural identity, mahalla institution, "New Uzbekistan" massifs, innovative urban planning, public space, urban culture.*

XXI asr boshlaridan buyon dunyo aholisining shahar hududlarida yashash ulushi barqaror sur'atlarda ortib bormoqda va bu jarayon nafaqat demografik, balki chuqur ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarni ham keltirib chiqarmoqda [7, 1-p]. O'zbekistonda ham so'nggi besh-olti yil mobaynida shaharsozlik siyosatida tub burilish yuz berdi: 2021-yil 9-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-32-son Farmoni bilan mamlakat miqyosida yangi turar-joy massivlarini barpo etish dasturi boshlab yuborildi [1]. Ushbu dastur Farg'ona viloyati Bog'dod tumanida barpo etilgan "Muruvvat" massivi namunasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib [1, 2-p], uning maqsadi nafaqat aholini zamonaviy uy-joy bilan ta'minlash, balki hududlarda "kompleks" tarzda ijtimoiy soha, infratuzilma va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaratishdan iborat edi [2].

Dastur miqyosi yildan-yilga kengayib bormoqda: 2022-yilning o'zidayoq mamlakat bo'ylab 30 ta massiv uchun qariyb 992 gektar yer maydoni ajratilgan bo'lsa [4], 2025-yil sentabr holatiga ko'ra mamlakatda 56 ta "Yangi O'zbekiston" massivi tashkil etilgan, ularda 28 ming xonadondan iborat 543ta ko'p qavatli uy qurib bitkazilgan [3]. 2030-yilga qadar massivlar sonini 100taga yetkazish rejalashtirilgan [3]. Bu ko'rsatkichlar oddiy statistik ma'lumot bo'lib qolmasdan, balki mamlakat hududiy tuzilishi, aholi turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlar tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlarning ko'lami haqida guvohlik beradi.

Shu bilan birga, mavzuning ilmiy tadqiq etilish darajasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "Yangi O'zbekiston" massivlari, asosan, arxitektura-shaharsozlik,

iqtisodiyot va huquqshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilmoqda: qurilish texnologiyalari, ipoteka mexanizmlari, yer resurslaridan foydalanish masalalari tahlil qilinmoqda. Biroq bu jarayonning madaniyatshunoslik jihatini, ya'ni yangi massivlarning ijtimoiy-madaniy makon sifatida qanday "yaratilishi", bunda an'anaviy mahalla institutining qanday transformatsiyaga uchrashi, yangi turmush tarzi va madaniy identifikatsiyaning shakllanish mexanizmlari hozirgacha alohida va yaxlit tadqiqot obyekti sifatida deyarli o'rganilmagan. Aynan shu bo'shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi, "Yangi O'zbekiston" massivlari misolida yangi shahar hududlarining shakllanish jarayonini nafaqat jismoniy-fazoviy, balki ijtimoiy-madaniy "yaratish" (fransuzcha "production de l'espace" ma'nosida) jarayoni sifatida konseptual jihatdan asoslash va bunda qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlarni aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: "Yangi O'zbekiston" massivlari dasturining me'yoriy-huquqiy asoslari va statistik dinamikasini tahlil qilish; yangi massivlardagi ijtimoiy infratuzilma va madaniy makonlar tarkibini o'rganish; mahalla institutining yangi sharoitdagi transformatsiyasini aniqlash; olingan natijalarni zamonaviy shahar madaniyati nazariyalari (K.Linch, A.Lefevr, J.Jekobs, L.Virt va boshqalar) asosida talqin qilish; yangi shaharsozlik amaliyotidagi innovatsion jihatlarni tizimlashtirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, birinchi marta "Yangi O'zbekiston" massivlari madaniyatshunoslik metodologiyasi asosida, ya'ni ijtimoiy-madaniy makonning "yaratilishi" konsepsiyasi doirasida kompleks tahlil qilinmoqda. Maqolaning amaliy ahamiyati uning natijalaridan hududiy rejalashtirish, ijtimoiy siyosat va madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqotning metodologik asosini madaniyatshunoslikka xos kompleks yondashuv tashkil etadi. Ish jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: qiyosiy-tarixiy metod, "Yangi O'zbekiston" massivlari dasturini mustaqillik yillarida amalga oshirilgan avvalgi shaharsozlik loyihalari (masalan, sovet davri

mikrorayonlari va 2000–2010-yillardagi uy-joy dasturlari) bilan qiyoslash imkonini berdi; tizimli-tarkibiy tahlil yangi massivni yaxlit ijtimoiy-madaniy tizim sifatida, uning tarkibiy qismlari (turar-joy fondi, ijtimoiy infratuzilma, jamoat makonlari, boshqaruv institutlari) o'zaro bog'liqligida o'rganish uchun qo'llanildi; case-study (aniq holatlarni tahlil qilish) metodi – respublikaning turli mintaqalaridagi bir necha “Yangi O'zbekiston” massivlari, jumladan namunaviy “Muruvvat” massivi misolida amalga oshirildi.

Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili qo'llanildi: Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va rasmiy statistik ma'lumotlar (Qurilish vazirligi ma'lumotlari) matnini tahlil qilish orqali dastur mazmuni va maqsadlari aniqlandi. Ikkilamchi ma'lumotlarni tahlil qilish metodi doirasida ommaviy axborot vositalari va rasmiy statistik hisobotlardagi ma'lumotlar [3] tadqiqot uchun asosiy empirik baza sifatida xizmat qildi.

Nazariy jihatdan tadqiqot Amerika va Yevropa shahar sotsiologiyasi hamda madaniyatshunosligi maktablarining Chikago maktabi [10], K.Linchning “shahar obrazi” konsepsiyasi [7], A.Lefevrning fazoni “ishlab chiqarish” nazariyasi [8], A.Appaduraiyning “mahalliylikni yaratish” g'oyasi [14] tushunchaviy apparatiga tayanadi. Bu, o'z navbatida, K.Doksiadisning inson turar-joylari haqidagi fan – “ekistika” konsepsiyasi [5] hamda mahalliy urbanistika tadqiqotlari [6] bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanildi.

Tadqiqotning empirik bazasini 2021–2026-yillar davomida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek shu davrda e'lon qilingan rasmiy statistik va ommaviy axborot manbalaridagi ma'lumotlar tashkil etdi. Tadqiqot chegaralari sifatida shuni ta'kidlash lozimki, ishda sotsiologik so'rovnoma yoki dala tadqiqoti (fieldwork) o'tkazilmagan; tahlil, asosan, kontent-tahlil va nazariy talqin xarakteriga ega, bu esa kelgusi tadqiqotlar uchun empirik sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish zaruratini ko'rsatadi.

Dasturning me'yoriy-huquqiy va statistik manzarasi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, “Yangi O'zbekiston” massivlari dasturi 2021-yil 9-dekabrdagi PF-32-son Farmon

bilan boshlab yuborilgan bo'lib [1], uning asosiy maqsadlari qatoriga aholining uy-joy sharoitini yaxshilash, zamonaviy shaharsozlik talablari asosida ko'p qavatli uy-joylar, ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, shuningdek aholi punktlarining urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish kiritilgan [1, 1-p]. Farmonning muhim jihati shundaki, unda alohida uy qurish emas, balki "kompleks", ya'ni turar-joy, ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasini bir vaqtning o'zida yaratish tamoyili mustahkamlangan [1, 1-p].

2022-yil 29-yanvarda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonda ushbu dastur mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining tarkibiy qismi sifatida mustahkamlab qo'yilgan [2]. Xususan, 2023-yilda "Yangi O'zbekiston" massivlari va boshqa 161 ta massivda yangi uy-joylar qurilishining yillik hajmini 1,6 baravar oshirib, 90 ming xonadonga yetkazish vazifasi belgilangan edi [2].

Dastur amaliyoti dinamik rivojlanmoqda: 2022-yilda respublika bo'ylab 30ta massiv uchun qariyb 992 gektar yer ajratilgan bo'lsa [4], 2025-yil sentabr holatiga ko'ra mamlakatda jami 56ta "Yangi O'zbekiston" massivi tashkil etilib, ularda 28 ming xonadondan iborat 543ta ko'p qavatli uy qurib bitkazilgan [3]. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda atigi 29ta, 2025-yilda esa 890ta uy – jami 31 ming xonadon foydalanishga topshirilgan, bu esa dastur suratlarining keskin oshganidan dalolat beradi [3]. 2030-yilga qadar massivlar sonini 100taga yetkazish strategik maqsad qilib belgilangan [3].

Ijtimoiy infratuzilma va madaniy makonlarning shakllanishi. Tahlil qilingan hujjatlar va manbalar shuni ko'rsatadiki, "Yangi O'zbekiston" massivlari, avvalgi shaharsozlik amaliyotidan farqli o'laroq, faqat turar-joy binolarini emas, balki to'liq ijtimoiy-madaniy infratuzilmani – maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, tibbiyot punktlari, mahalla fuqarolar yig'ini binolari, savdo va bozor infratuzilmasi, sport va bog'-park zonalarini o'z ichiga oladi [3]. Ushbu yondashuv, mohiyatan, faqat "uy qurish"dan "yashash muhitini yaratish"ga o'tishni anglatadi,

bu esa fazoni A.Lefevr ta'kidlaganidek, nafaqat fizik, balki idrok etiladigan va yashaladigan uch o'lchovda "ishlab chiqarish" jarayoni sifatida talqin qilishga imkon beradi [8, 33-p].

Shu bilan birga, natijalar yangi massivlarda an'anaviy mahalla institutining sezilarli transformatsiyaga uchrayotganini ko'rsatadi. An'anaviy o'zbek mahallasi asrlar davomida hudud, qarindosh-urug'chilik va qo'shnichilik aloqalari asosida shakllangan, o'z-o'zini boshqarish va o'zaro yordam funksiyalarini bajaruvchi ijtimoiy-madaniy institut sifatida mavjud bo'lgan. Yangi massivlarda esa aholi turli hududlardan, turli ijtimoiy guruh va etnik-madaniy muhitdan kelib joylashadi, bu esa L.Virt ta'kidlagan "shahar turmush tarzi"ga xos anonimlik, ijtimoiy aloqalarning yuzakilashuvi va rasmiylashuvi kabi hodisalarning yuzaga chiqishi ehtimolini kuchaytiradi [11, 12-p]. Shu bois, davlat tomonidan har bir massivda mahalla fuqarolar yig'ini institutini dastlabki bosqichdanoq tashkil etishga alohida e'tibor qaratilishi tasodifiy emas: bu, mohiyatan, an'anaviy ijtimoiy institutni yangi fazoviy sharoitga "ko'chirish" va uni sun'iy ravishda qayta tiklashga qaratilgan innovatsion ijtimoiy-madaniy tajriba sifatida baholanishi mumkin.

Innovatsion yondashuvlar. Tadqiqot davomida aniqlangan innovatsion jihatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: birinchidan, "bosh reja" (masterplan) darajasida ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasini turar-joy qurilishi bilan sinxronlashtirish tamoyili [4]; ikkinchidan, moliyalashtirishning aralash modeli davlat, xususiy pudratchilar va ipoteka-kredit mexanizmlarining uyg'unlashuvi [2]; uchinchidan, "namunaviy massiv" ("Muruvvat" massivi) tajribasini boshqa hududlarga tarqatishning tipologik yondashuvi, bu esa madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan "madaniy naqsh"ning institutsional ravishda ko'chirilishi sifatida talqin qilinishi mumkin [1, 2-p]. Bundan tashqari, so'nggi yillarda ayrim massivlarda raqamli boshqaruv va "aqlli maskan" elementlarining joriy etilishi kuzatilmoqda, bu esa an'anaviy jamoat makonlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan uyg'unlashtirish tendensiyasidan dalolat beradi.

Olingan natijalarni zamonaviy shahar madaniyati nazariyalari kontekstida talqin qilish bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, K.Linchning shahar “o‘qiyla olishlik” (imageability) konsepsiyasi nuqtayi nazaridan qaraganda [7, 4-p], “Yangi O‘zbekiston” massivlarining me‘moriy-fazoviy yaxlitligi va tartibliligi ularning “o‘qiyla olishlik” darajasini oshiradi – aholi yangi hududda tezroq mo‘ljal ola boshlaydi. Biroq bu holat bir ma’noli emas: yagona andozaviy loyihalar asosida qurilgan massivlar o‘ziga xoslik va mahalliy xotira jihatidan kambag‘allashishi xavfini ham keltirib chiqaradi, bu esa J.Jekobsning shahar hayotining “ko‘cha darajasidagi” xilma-xilligi va tabiiy nazorat (“eyes on the street”) to‘g‘risidagi g‘oyalari nuqtayi nazaridan tanqidiy fikr yuritishga asos beradi [9, 35-p].

Ikkinchidan, A.Lefevrning fazoni ishlab chiqarish nazariyasi [8, 33-p] asosida tahlil qilinganda, “Yangi O‘zbekiston” massivlari uch o‘lchovda namoyon bo‘ladi: “idrok etiladigan fazo” (rejalashtirilgan, me‘yoriy hujjatlarda tasvirlangan massiv), “tasavvur etiladigan fazo” (rasmiy ritorikada “obod turmush maskani” sifatida taqdim etiladigan ramziy fazo) va “yashaladigan fazo” (aholining kundalik amaliyotlari orqali shakllantiriladigan real hayotiy makon). Ushbu uch qatlam o‘rtasidagi nomuvofiqlik ya’ni rasmiy loyiha bilan aholining real turmush tajribasi o‘rtasidagi farq yangi massivlarni o‘rganishda alohida e’tibor talab qiladigan masala hisoblanadi.

Uchinchidan, M.Kastelsning “kollektiv iste’mol” (collective consumption) nazariyasi nuqtai nazaridan [12, 15-p], yangi massivlardagi ijtimoiy infratuzilma (maktab, tibbiyot, transport) davlat tomonidan markazlashgan tarzda taqdim etilishi shahar ijtimoiy siyosatining muhim resursi hisoblanadi, biroq bu, D.Xarvi ta’kidlaganidek [13, 101-p], resurslarning hududlar o‘rtasida adolatli taqsimlanishi masalasini ham ko‘ndalang qo‘yadi, ya’ni barcha hududlarda “Yangi O‘zbekiston” massivi maqomiga ega bo‘lish imkoniyati bir xil emasligi ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi lozim bo‘lgan muammodir.

To'rtinchidan, A.Appaduraiyning "mahalliylikni ishlab chiqarish" g'oyasi [14, 178-p] mazkur tadqiqot uchun alohida nazariy ahamiyat kasb etadi: unga ko'ra, mahalliylik berilgan narsa emas, balki doimiy ijtimoiy-madaniy amaliyotlar orqali "qurib boriladigan" hodisadir. Shu nuqtayi nazardan, "Yangi O'zbekiston" massivlarida mahalla institutining sun'iy tiklanishi, jamoat tadbirlari, mahalliy urf-odatlarining yangi hududga ko'chirilishi kabi jarayonlar aynan shu "mahalliylikni yaratish" mexanizmining amaliy ko'rinishi sifatida baholanishi mumkin. Bu, o'z navbatida, K.Doksiadis taklif etgan "ekistika" fanining inson turar-joylarini jismoniy va ijtimoiy o'lchamlarda yaxlit o'rganish tamoyiliga ham mos keladi [5, 20-p].

Beshinchidan, L.Virtning "shahar turmush tarzi" kontseptsiyasiga [11, 9-p] ko'ra, katta, zich va heterogen aholi guruhlari yashaydigan hududlarda ijtimoiy aloqalar rasmiylashadi va sekundar xarakter kasb etadi. Yangi massivlarda bu tendensiya, bir tomondan, davlat tomonidan tashkil etilayotgan mahalla institutlari va jamoat tadbirlari orqali muvozanatlashtirilishga harakat qilinmoqda, ikkinchi tomondan, bu jarayonning uzoq muddatli natijalari hozircha yetarli darajada o'rganilmagan, bu esa kelgusi ijtimoiy-madaniyatshunoslik tadqiqotlari uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bunda G.Zimmelning yirik shaharda shaxslararo munosabatlarning aql-idrokka asoslangan ("blasé") tusga kirishi haqidagi klassik mulohazalari ham metodologik ahamiyat kasb etadi [15, 411-p].

Umuman olganda, "Yangi O'zbekiston" massivlari misolida ko'rilgan innovatsion izlanishlar nafaqat texnik-iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy-madaniy mazmunga ega ekanligi ayon bo'ladi. Bu, V.L.Glazichev ta'kidlaganidek [6, 45-p], zamonaviy urbanistikaning shahar makonini nafaqat qurilish, balki ijtimoiy-madaniy loyihalashtirish obyekti sifatida ko'rishga o'tayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot "Yangi O'zbekiston" massivlari dasturining 2021-yildan buyon amalga oshirilayotgan yirik miqyosli shaharsozlik islohoti ekanligini, uning mohiyatan faqat uy-joy ta'minoti emas, balki yaxlit ijtimoiy-madaniy makonni yaratishga qaratilgan kompleks loyiha sifatida baholanishi zarurligini ko'rsatdi.

Dasturning statistik dinamikasi 2025-yil holatiga ko'ra mamlakatda 56ta massiv tashkil etilgani, ularda 28 ming xonadondan iborat 543ta uy qurib bitkazilgani hamda 2030-yilga qadar massivlar sonini 100taga yetkazish rejalashtirilgani ushbu jarayonning miqyosi va davlat siyosatidagi ustuvorligidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida yangi massivlarda an'anaviy mahalla institutining sezilarli transformatsiyaga uchrayotgani, uni yangi fazoviy sharoitda institutsional yo'l bilan sun'iy tiklashga qaratilgan harakatlar esa madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan alohida ilmiy ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Bunday jarayonlarni tahlil qilishda K.Linch, A.Lefevr, J.Jekobs, L.Virt, M.Kastels, D.Xarvi va A.Appaduraiy kabi olimlarning nazariy-metodologik yondashuvlari samarali tadqiqot vositasi bo'lib xizmat qilishi isbotlandi, chunki ular yangi massivlarni bir vaqtning o'zida fazoviy, ijtimoiy va ramziy hodisa sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Shu bilan birga, aniqlangan innovatsion yondashuvlar bosh reja darajasidagi kompleks rejalashtirish, aralash moliyalashtirish modeli, namunaviy massiv tajribasini institutsional ko'chirish va raqamli boshqaruv elementlarini joriy etish "Yangi O'zbekiston" massivlari dasturining nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham yangi bosqichga ko'tarilayotganini tasdiqlaydi.

Xullas, olib borilgan tahlil asosan nazariy-kontent xarakteriga ega bo'lib, empirik sotsiologik ma'lumotlar va dala tadqiqotlari natijalariga bevosita tayanmagani tadqiqotning muayyan chegaralarini belgilaydi. Xususan, yangi massivlar aholisi, ularning ijtimoiy-madaniy muhiti, kundalik turmush tarzi, qadriyatlari hamda madaniy identifikatsiyasi bilan bog'liq jarayonlarni yanada chuqurroq yoritish uchun bevosita aholi o'rtasida olib boriladigan empirik tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud.

Shu nuqtayi nazardan, kelgusidagi tadqiqotlarda yangi massivlar aholisi o'rtasida keng ko'lamli sotsiologik so'rovnomalar va intervyular o'tkazish, turli hudud va mintaqalarda barpo etilgan massivlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, urbanizatsiya jarayonining aholi turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va mahalliy madaniy an'analariga ta'sirini

o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlar sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, yangi avlod vakillari massivlarda tug'ilib, voyaga yetayotgan bolalar va yoshlarning madaniy identifikatsiyasi, tarixiy-madaniy qadriyatlarga munosabati hamda yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuv jarayonlarini dala tadqiqotlari, kuzatuv, chuqur intervyu va fokus-guruhlar asosida o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Bunday empirik yondashuvlar nazariy xulosalarni amaliy ma'lumotlar bilan boyitib, yangi massivlarning zamonaviy ijtimoiy-madaniy makon sifatidagi o'rnini yanada kompleks baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-32-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 10.12.2021. – 06/21/32/0079-son.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2022.*
3. *"Yangi O'zbekiston" massivlari obod turmush maskaniga aylanmoqda // O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA). – 2025. – 10-sentyabr. – [Elektron resurs]. – URL: https://uza.uz/oz/posts/yangi-ozbekiston-massivlari-obod-turmush-maskaniga-aylangan_758373 (murojaat sanasi: 26.08.2026).*
4. *"Yangi O'zbekiston" massivlari qurilishi uchun qariyb 1000 gektar yer ajratildi // UzReport.news. – [Elektron resurs]. – URL: <https://uzreport.news/society/yangi-o-zbekiston-massivlari-qurilishi-uchun-qariyb-1-000-gektar-yer-ajratildi> (murojaat sanasi: 26.08.2026).*
5. *Doxiadis C. Ekistics: An Introduction to the Science of Human Settlements. – London: Hutchinson, 1968. – 527 p.*

6. Глазычев В. Урбанистика. – Москва: Издательство «Европа», 2008. – 220 с.
7. Lynch K. *The Image of the City*. – Cambridge, MA: The MIT Press, 1960. – 194 p.
8. Lefebvre H. *The Production of Space* / Transl. by D. Nicholson-Smith. – Oxford: Blackwell Publishing, 1991. – 454 p.
9. Jacobs J. *The Death and Life of Great American Cities*. – New York: Random House, 1961. – 458 p.
10. Park R., Burgess E., McKenzie R. *The City*. – Chicago: The University of Chicago Press, 1925. – 239 p.
11. Wirth L. *Urbanism as a Way of Life* // *American Journal of Sociology*. – 1938. – Vol. 44, – № 1. – P. 1–24.
12. Castells M. *The Urban Question: A Marxist Approach*. – London: Edward Arnold, 1977. – 502 p.
13. Harvey D. *Social Justice and the City*. – Oxford: Basil Blackwell, 1988. – 336 p.
14. Appadurai A. *Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization*. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. – 229 p.
15. Simmel G. *The Metropolis and Mental Life* // *The Sociology of Georg Simmel* / Ed. by K.H. Wolff. – Glencoe, IL: The Free Press, 1950. – P. 409–424.